



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№3

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

3-jild
3-son
March, 2026

February, 2026
Volume 3
Number 3

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik (Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor)

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochilid Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)
Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)
Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)
Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)
Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)
Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)
Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)
Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)
Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)
Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)
Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)
Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)
Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)
Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)
Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)
Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)
Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)
Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)
Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)
Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик
Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор
Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор
Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор
Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор
Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор
Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент
Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор
Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент
Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент
Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Эрашиева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент
Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент
Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент
Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)
Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)
Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)
Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Raqamli iqtisodiyot
Digital economy
Цифровая экономика



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDLARDA IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIYA, AMALIYOT VA ISTIQBOLLAR

Nomazov Baxrom Bobomuradovich

DEVELOPMENT OF ECONOMIC SECTORS IN REGIONS IN THE CONTEXT OF DIGITAL ECONOMY: THEORY, PRACTICE AND PROSPECTS

Nomazov Bakhrom Bobomuradovich

РАЗВИТИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ СЕКТОРОВ В РЕГИОНАХ В КОНТЕКСТЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ: ТЕОРИЯ, ПРАКТИКА И ПЕРСПЕКТИВЫ

Номазов Бахром Бобомурадович

Received: March 7, 2026 Revised: March 14, 2026 Accepted: March 18, 2026 Published: April 1, 2026

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston hududlarida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning nazariy asoslari, zamonaviy holati va istiqbollari tadqiq etilgan. Maqolada hududiy iqtisodiy rivojlanish, raqamli texnologiyalarning tarmoqlarga ta'siri, aqlli shaharlar, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) va Internet of Things (IoT) kabi texnologiyalarning hududiy iqtisodiyotga integratsiyasi tahlil qilingan. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, 2030-yilga qadar raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi va uning mintaqaviy aspektlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya hududiy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida samaradorlikni 25-40% ga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, hududiy rivojlanish, tarmoq diversifikatsiyasi, sun'iy intellekt, raqamli transformatsiya, aqlli shahar, iqtisodiy klaster.

Abstract: This article examines the theoretical foundations, current state, and prospects for developing economic sectors in the regions of Uzbekistan in the context of the digital economy. The paper analyzes regional economic development, the impact of digital technologies on industries, and the integration of smart cities, artificial intelligence, Big Data, and IoT into regional economies. Reforms implemented in Uzbekistan, particularly the strategy for developing the digital economy until 2030 and its regional aspects, are reviewed. Research results indicate that digital transformation creates opportunities to increase efficiency across all sectors of regional economies by 25-40%.

Keywords: digital economy, regional development, sector diversification, artificial intelligence, digital transformation, smart city, economic cluster.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические основы, текущее состояние и перспективы развития экономических секторов в регионах Узбекистана в контексте цифровой экономики. Анализируется региональное экономическое развитие, влияние цифровых технологий на отрасли, а также интеграция "умных городов", искусственного интеллекта, больших данных и Интернета вещей в региональную экономику. Рассматриваются реформы, реализованные в Узбекистане, в частности, стратегия развития цифровой экономики до 2030 года и ее региональные аспекты. Результаты исследования показывают, что цифровая трансформация создает возможности для повышения эффективности во всех секторах региональной экономики на 25-40%.

Ключевые слова: цифровая экономика, региональное развитие, диверсификация отраслей, искусственный интеллект, цифровая трансформация, умный город, экономический кластер.



■ KIRISH

XXI asr boshlarida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jahon iqtisodiyotida tub o'zgarishlarga olib keldi. Raqamli iqtisodiyot bugun nafaqat axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini, balki sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa tarmoqlarni qamrab olmoqda. Ko'pgina tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, raqamli transformatsiya hududiy iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omillaridan biriga aylanib bormoqda [9], [7].

O'zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. 2020-yilda tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi hududlarda raqamli infratuzilmani kengaytirish, raqamli kompetensiyalarni oshirish va iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish yo'nalishida keng ko'lamli tadbirlarni nazarda tutmoqda [1].

Ushbu maqolaning maqsadi - raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston hududlarida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish muammolarini kompleks tahlil qilish, xorijiy tajribani o'rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

"Raqamli iqtisodiyot" atamasi ilk bor 1995-yilda Don Tapscott tomonidan kiritilgan bo'lib, u axborot texnologiyalari asosida shakllanadigan yangi iqtisodiy tizimni anglatadi [10]. Keyinchalik Brynjolfsson va McAfee [2] o'zlarining "Ikkinchi mashina davri" asarida raqamli texnologiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini batafsil tahlil qilganlar.

Jahon banki [11] ma'lumotlariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot global YaIMning 15,5%ini tashkil etadi va 2030-yilga qadar bu ko'rsatkich 30%ga etishi kutilmoqda. Jucker va boshq. [14] tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya qo'llaydigan korxonalar raqobatdoshligini o'rtacha 2,5 baravargacha oshirishi mumkin.

Hududiy iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy nazariyalari qatorida Porter [8] klaster nazariyasi, Krugman [5] yangi iqtisodiy geografiya nazariyasi va Florida [4] ijodiy sinflar nazariyasi muhim o'rin tutadi. Ushbu nazariyalar raqamli davrda yangicha talqin topib, "raqamli klister", "aqli mintaq" va "innovatsion ekosistema" tushunchalarini yuzaga keltirdi.

Camagni va Capello [3] hududiy innovatsion tizimlar konsepsiyasida ta'kidlaganidek, hududiy rivojlanish faqat moddiy infratuzilma bilan emas, balki bilim va innovatsiyalar tizimining rivojlanishi bilan ham bevosita bog'liq. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bu bog'liqlik yanada kuchayyapti.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuni ilmiy o'rganish, statik tahlillar, mantiqiylik, tahlil va tadqiq etish jarayonida turli xil adabiyotlar va maqolalar tahlilidan foydalanilgan.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning hududiy rivojlanishida sezilarli notekislik kuzatilmoqda. Toshkent shahrida raqamli transformatsiya ancha yuqori sur'atlar bilan bormoqda, biroq viloyatlarda bu jarayon

hali to'liq shakllangan emas. Quyidagi jadvalda O'zbekiston viloyatlari bo'yicha asosiy raqamli ko'rsatkichlar keltirilgan.

Raqamli texnologiyalarning iqtisodiyot tarmoqlariga integratsiyasi quyidagi yo'nalishlarda jadal bormoqda:

– Qishloq xo'jaligi (AgriTech): Precision farming texnologiyalari, drone asosida kuzatuv, IoT sensorlar orqali tuproq holati monitoringi va sun'iy intellekt asosidagi hosildorlik prognozi. Samarqand va Farg'ona viloyatlarida pilot loyihalar 2022-2023-yillarda hosilni 23-28%ga oshirishga imkon berdi.

– Sanoat (Industry 4.0): Navoiy erkin iqtisodiy zonasida avtomatlashtirish va robototexnikaning joriy etilishi, ERP tizimlarining kengaytirilishi. Navbatdagi bosqichda "raqamli egizak" (digital twin) texnologiyasini qo'llash ko'zda tutilmoqda.

– Transport va logistika: Elektron yo'l hujjatlari tizimi, smart-logistika platformalari, intermodal transport tizimlarini raqamlashtirish. O'zbekiston temir yo'llarida e-bilet tizimi 2023-yilda 94% savdo ulushiga erishdi.

– Ta'lim va sog'liqni saqlash: Masofaviy ta'lim platformalari, telemedicine xizmatlari, sun'iy intellekt asosidagi diagnostika. COVID-19 pandemiyasi mazkur sohalarining raqamli transformatsiyasini keskin tezlashtirdi.

– Moliya va bank sektori: O'zbekistonda 2023-yilda to'lovlarning 67,3%i raqamli usulda amalga oshirildi. Mikromoliya va fintech ekotizimining rivojlanishi qishloq joylardagi moliyaviy inklyuziyani oshirmoqda.

Xitoy tajribasi: Hududiy raqamli platformalar

Xitoyda "Raqamli Ipak yo'li" strategiyasi doirasida mamlakatning barcha viloyatlari raqamli iqtisodiyotga integratsiyalashtirilmoqda. Guandun, Shandun va Szichuan provinsiyalarida mahalliy raqamli klasterlar tashkil etilgan bo'lib, ular hududiy YaIMga o'rtacha 12-15% hissa qo'shmoqda [6]. Alibaba Group va Tencent kabi platformalar iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini birlashtiruvchi ekotizim sifatida faoliyat yuritmoqda.

Janubiy Koreya: "K-Digital" modeli

Janubiy Koreya hukumati 2020-yilda "Korean New Deal" dasturini e'lon qildi. Ushbu dastur doirasida 2025-yilgacha 160 trillion vong (130 mlrd dollar) hajmida investitsiya ajratilib, mamlakatning barcha hududlari raqamli infratuzilma bilan ta'minlanishi ko'zda tutilgan. G'oyaning asosini mintaqaviy "5G - AI - Green" uchburchagi tashkil etadi [13].

Estoniya: Kichik mamlakatning katta raqamli modeli

Estoniya bugun dunyoning eng raqamlashtirilgan davlatlaridan biri sifatida tan olingan. 2023-yilda davlat xizmatlarining 99%i onlayn formatda ko'rsatilmoqda. Hududlarda e-rezidensiya tizimi orqali xorijiy tadbirkorlar faoliyat yuritishi va raqamli davlat xizmatlaridan foydalanishi mumkin [12]. Bu model kichik va o'rta hududlar uchun qadrlı tajriba hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston hududlarida raqamli iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda quyidagi to'siqlar aniqlangan:

Hududlarda raqamli transformatsiya to'rsiqlari va ularni bartaraf etish yo'llari

№	To'siq turi	Muammoning ko'rinishi	Tavsiya etilayotgan echim
1	Infratuzilma to'siqlari	Qishloq hududlarida broadband internet yo'qligi, energiya ta'minoti muammolari	Davlat-xususiy sheriklik asosida optik tolali tarmoqni kengaytirish
2	Kadrlar muammosi	IT va raqamli kompetensiyali mutaxassislar taqchilligi, "miya qochishi"	Hududiy IT-parklarni rivojlantirish, masofaviy ish o'rinlari yaratish
3	Moliyaviy to'siqlar	Kichik va o'rta korxonalarning raqamlashtirish uchun mablag' etishmasligi	Raqamlashtirish subsidi va soliq imtiyozlari, arzon kreditlar
4	Huquqiy to'siqlar	Ma'lumotlar himoyasi, kiberxavfsizlik qonunchiligining to'liq shakllanmaganligi	Xalqaro standartlarga mos keluvchi qonunchilikni shakllantirish
5	Ijtimoiy to'siqlar	Raqamli savodsizlik, aholining bir qismida raqamli texnologiyalarga ishonchsizlik	Raqamli savodxonlik dasturlari, "Bir oila - bir kompyuter" dasturlarini kengaytirish

Manba: Muallif tomonidan tuzilgan.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Hududiy raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun kompleks siyosat talab etiladi. Tadqiqot asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

– Hududiy raqamli transformatsiya yo'l xaritalarini ishlab chiqish va har bir viloyat uchun aniq maqsadli ko'rsatkichlar belgilash. Markaziy Osiyodagi raqobatdosh mamlakatlar - Qozog'iston va Gruziyada bu amaliyot muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

– Hududiy IT-parklar va texnoparklar tarmog'ini kengaytirish. Toshkentdagi IT Park tajribasini mintaqalarga olib borish, arzon ijara narxlar va soliq imtiyozlari orqali startaplarni jalb qilish.

– "Aqlli qishloq" (Smart Village) kontseptsiyasini ishlab chiqish. Qishloq xo'jaligi, ta'lim va sog'liqni saqlashni bir platformada birlashtiruvchi hududiy raqamli ekotizimni yaratish.

– Hududiy raqamli ko'rsatkichlar indeksi (Regional Digital Index) tizimini joriy etish va uni yillik monitoring qilish.

2030-yilga qadar O'zbekiston hududlarida raqamli iqtisodiyot quyidagi parametrlarga erishishi mumkin: internet qamrovi 95%ga etishi, e-tijorat hajmi 5 mlrd dollarga o'sishi, IT eksporti 3 mlrd dollarga chiqishi. Biroq bu natijalarga erishish uchun hozirdan kompleks choralar ko'rilishi zarur.

Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va bulutli texnologiyalar hududiy iqtisodiyotning yangi iqtisodiy o'sish nuqtalariga aylanishi kutilmoqda. Metavers va Web 3.0 texnologiyalari ham kelgusi yillarda hududiy rivojlanishga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot O'zbekiston hududlarida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda. Biroq hududlar o'rtasida

raqamli tengsizlikning mavjudligi kompleks siyosat yondashuvini talab qiladi.

Muvaffaqiyatli raqamli transformatsiya uchun uchta asosiy shart bajarilishi kerak: birinchidan, etarli raqamli infratuzilma; ikkinchidan, malakali kadrlar salohiyati; uchinchidan, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi huquqiy va moliyaviy muhit. Xitoy, Koreya va Estoniya tajribasi ushbu uch shartning birgalikda ta'minlanishi hududiy iqtisodiy o'sishni 2-3 baravarga tezlashtirishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Kelgusi tadqiqotlar yo'nalishlari sifatida O'zbekiston hududlari bo'yicha alohida raqamli indeksni ishlab chiqish, sun'iy intellektning tarmoq samaradorligiga ta'sirini miqdoriy baholash va mintaqaviy raqamli siyosatlarni solishtirma tahlil qilish tavsiya etiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

Nomazov Baxrom Bobomuradovich, Qarshi davlat texnika universiteti, iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent / Номазов Бахром Бобомурадович, Каршинский государственный технический университет, доктор философии по доктор философии (PhD) по экономике, доцент / Nomazov Bakhrom Bobomuradovich, Karshi State Technical University, Doctor of Philosophy in Economics (PhD), associate professor

E-mail: baxrom111984@gmail.com

ORCID: 0009-0002-7964-9162

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

[1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-6079-son Farmoni. - Toshkent, 2022-yil 28-yanvar.



- [2]. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. - New York: W.W. Norton & Company, 2014. - 320 p.
- [3]. Camagni R., Capello R. Regional Competitiveness and Territorial Capital: A Conceptual Approach and Empirical Evidence from the European Union // *Regional Studies*. - 2013. - Vol. 47, №9. - P. 1383-1402.
- [4]. Florida R. The Rise of the Creative Class. - New York: Basic Books, 2002. - 434 p.
- [5]. Krugman P. Increasing Returns and Economic Geography // *Journal of Political Economy*. - 1991. - Vol. 99, №3. - P. 483-499.
- [6]. Li J., Chen L., Yi J., Mou J., Liao J. Ecosystem-specific advantages in international digital commerce // *Journal of International Business Studies*. - 2022. - Vol. 50. - P. 1448-1463.
- [7]. OECD. Digital Economy Outlook 2022. - Paris: OECD Publishing, 2022. - 251 p. URL: <https://doi.org/10.1787/bb167041-en>
- [8]. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. - New York: Free Press, 1990. - 855 p.
- [9]. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. - Geneva: World Economic Forum, 2016. - 192 p.
- [10]. Tapscott D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. - New York: McGraw-Hill, 1995. - 342 p.
- [11]. World Bank. World Development Report 2021: Data for Better Lives. - Washington, D.C.: World Bank, 2021. - 364 p. URL: <https://doi.org/10.1596/978-1-4648-1600-0>
- [12]. e-Estonia. Digital Society Overview. - Tallinn: Enterprise Estonia, 2023. URL: <https://e-estonia.com/>
- [13]. MSIT Korea. Korean New Deal: Digital New Deal Plan. - Seoul: Ministry of Science and ICT, 2021. - 78 p.
- [14]. Jucker A., Groth K., Mayer C. Digital maturity and firm performance in the digital age // *Journal of Strategy and Management*. - 2021. - Vol. 14, №2. - P. 302-315.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz